

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18232539>

TEKNOLOGIK STARTAPLARNI SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi., PhD. dotsent.

E-mail: tursunov6b60@gmail.com

Tel.: (+99890)-1895660

ORCID: 0000-0001-9297-8361

Annotasiya: Maqolada texnologik startaplarni sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga ta’siri bilan bog’liq jarayonlar nazariy va metodologik jihatdan tadqiq etilgan. Texnologik startaplarni sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga yo’naltirish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslangan. Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta’minlashga yo’naltirilgan texnologik startaplarni amalga oshirishning xorij tajribalari o’rganilib, tegishli tajribalar taqqoslama tahlili orqali ustuvor yo’nalishlarini shakllantirish imkoniyatlari. Texnologik startaplarni O’zbekistonda sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishga yo’naltirilgan texnologik startaplarni shakllantirish tizimi tahlil qilingan. Milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishga yo’naltirilgan texnologik startaplarni shakllantirish tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: texnologik startaplar, startap loyihalar ekotizimi, venchur investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi, raqamli texnologiyalar transformatsiyasi.

KIRISH

Insoniyat tarixida texnik va texnologik omillar kuchli ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlikni ta’minlovchi muhim vosita hisoblanib, jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda alohida o’rin egallaydi. Jamiyat taraqqiyotida texnik va texnologik omillarning o’rni mehnat hamda kapital samaradorligini oshirish, kapitalning erkin harakatini ta’minlash hisobiga hududiy iqtisodiy o’sish nuqtalarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo’ladi. Ayniqsa, mazkur holatlar ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki o’n yillikda iqtisodiyotning qishloq xo’jaligi, qurilish va boshqa tarmoqlarida yuqori darajadagi infratuzilma xizmatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan investitsion faoliyat samaradorligini ta’minlashda o’z aksini topadi. 1960-1970 yillarga kelib jahon iqtisodiyotida shakllangan sanoat ishlab chiqarishning tegishli infratuzilmasi yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmining keskin ortishiga ta’sir ko’rsatdi. Bu holat mamlakatlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda ilmiy-texnik taraqqiyotni rag’batlantirishga yo’naltirilgan kapital qo’yilmalar tarkibini qayta ko’rib chiqishga olib keldi. Natijada, sanoat ishlab

chiqarishning hududiy muvozanatligini ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omillar assimilyatsiyasini strategik rejalashtirish imkoniyati yuzaga keldi.

1970-1980 yillarda rivojlangan mamlakatlarda resurs tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishning ilmiy-texnik taraqqiyotini yanada rivojlantirishga turtki beradigan axborot texnologiyalari hisobiga ishlab chiqarishning material va energiya sarfini keskin kamaytirishga erishildi. Ushbu davrda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hisobiga ishlab chiqish sikli sezilarli darajada qisqartirdi.

XX-asr oxirida ishlab chiqarishni elektron avtomatlashtirish tizimiga o'tishi, robototexnika va sanoat ishlab chiqarish o'rtasidagi integral bog'liqlikni ta'minlashga olib keldi. Resurs tejaydigan texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon berdi. Ilmiy-texnik inqilobning amaldagi bosqichida axborotlashtirish tizimini ustuvor ahamiyat kasb etishi, sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiyasini ta'minlash va maxsus buyumlarni individual tayyorlashga xizmat qiladigan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish tizimini optimallashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur natijadorlik asosi innovatsion texnologiyalarni shakllantirish hamda ishlab chiqarish tizimini milliy va global bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladigan startup loyihalar orqali namoyon bo'lmoqda.

Startup loyihalarining barqaror ekotizimini shakllantirish va ventchur kapitali bozori faoliyatini kengaytirish O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga chuqur integratsiyasini ta'minlashda investitsion munosabatlarni tashkil etishning tegishli shart-sharoitlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi[1]. O'z navbatida ushbu holat sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik startaplarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlarni dolzarb ahamiyatga ega ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro darajada texnologik taraqqiyotni ta'minlash va uni amalga oshirish tizimini shakllantirishda startup loyihalarining o'rni bilan bog'liq tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlardan D.B.Autretsh, A.R.Turiklarning ilmiy izlanishlarida alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotchilar tomonidan sanoat muhandisligi ta'limini yaxshilash, tarmoqlarda startup loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini aniqlash va bandlikning moslashuvchan tizimini shakllantirish asosi ekanligi e'tirof etiladi[2]. J.K.Spender, V.Korvello, M.Grimaldi, P.Rippa tadqiqotlarida startup loyihalari korxonalarning ochiq innovatsiya jarayonlariga tizimli integratsiyasini ta'minlashning asosiy dvigateli sifatida qayd etilib, ularni moliyalashtirish manbaalarini kengaytirish sanoat ishlab chiqarishning zamonaviy bilimlar generatsiyasini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etiladi[3]. J.S.Gans, S.Stern, J.Vu kabi iqtisodchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sanoat tadbirkorligiga doir strategiyalarni amalga oshirishning alternativ varianlarini shakllantirishda startup loyihalarining o'rni asoslangan[4]. M.Formichini, G.Chimini, E.Pulyeze, A.Gabriella tadqiqotlarida davlat sanoat siyosatini shakllantirishga doir mahalliy sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan

texnologik munosabatlarni startap loyihalar orqali muvofiqlashtirish lozimligi qayd etilgan[5].

MDH iqtisodchi olimlaridan N.S.Yelina, M.V.Kovaleva, L.V.Silakova, V.V.Shirokovalarning tegishli ilmiy tadqiqotlarida texnologik startaplar, muhandislik va texnik tadqiqotlar orqali yaratilgan mahsulot-innovatsion mahsulot sifatida qayd etiladi. Tadqiqot natijalari texnologik startaplarni boshqaruv maqsadlarini o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini asoslash bilan bir qatorda funksional xususiyatlarini hisobga olgan yondashuvlarni shakllantirishga imkon beradi[6]. B.Ye.Tokarevning ilmiy tadqiqotlarida texnologik innovatsiyalarni marketing metodologiyasini shakllantirishda sinov va xatoga asoslangan faoliyatni o'rganishga ustuvorlik beriladi[7]. A.V.Kojanova tadqiqotlari orqali milliy innovatsion ekotizim doirasida yangi startaplarni moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqishning tegishli tamoyillari va ketma-ketligi yoritib beriladi. Startap loyihalarning hayotiylik siklini turli bosqichlarini moliyalashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilinib, moliyalashtirish tendensiyalari baholanadi[8]. E.Sh.Shaymiyeva, G.I.Gumerovalarning ilmiy tadqiqotlarida startap loyihalar sanoat ishlab chiqarishni kreativ tarzda rivojlantirish hamda texnologik suverenitet asosi sifatida qayd etiladi[9]. K.L.Astapov, D.I.Jdanov tadqiqotlarida texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlashning strategik asoslari ko'rib chiqiladi. Startaplar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va postindustrial iqtisodiyotni asosi sifatida mamlakatning global sanoat ishlab chiqarish tizimiga integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi[10]. M.O.Inshakov tadqiqotlari jahon iqtisodiyotini inqirozdan keyingi tiklanishi va iqtisodiy faollikni oshishi innovatsion rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladigan startap loyihalar ijrosiga bog'liqligi e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida milliy iqtisodiyot doirasidagi innovatsion faollikni baholash uchun yagona metodologik asos yaratilnimganligi ta'kidlanib, ushbu holat startap asoschilari va investorlar tomonidan e'tirozlarga sabab bo'layotganligi qayd etiladi[11].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.Ashurova, Sh.Atamuradov tadqiqotlarida texnologik startaplar uchun venchur kapitalini jalb qilishning strategik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Startap loyihalarning bozor salohiyatini baholash tizimini shakllantirish venchur kapitali sarmoyalarini jalb qilishdagi tavakkalchilikni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatib o'tiladi[12]. M.T.Xolbo'tayev o'z tadqiqotlari orqali startap ekotizimini tarkibiy elementlari va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qiladi. Milliy innovatsion muhitni takomillashtirish orqali startap ekotizimini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish mumkinligi qayd etiladi[13]. I.M.Jabborov tadqiqotlarida startap loyihalarni moliyalashtirishning asosiy mexanizmlarini amaliy qo'llanishi bilan bog'liq jihatlar tahlil qilinadi. Startaplarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini qo'llashda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishning o'rnini yoritib beriladi[14].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda startaplarni shakllantirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmining ayrim rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan. Ammo, texnologik startaplarni sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga ta'sirini tizimli tartibga

keltirish hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini shakllantirish jarayonlariga e'tibor berilmagan.

METODOLOGIYA

Maqolada texnologik startaplarni tashkil etish tizimi va uni muvofiqlashtirish jarayonlarini sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganishda mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sanoat tarmoqlari faoliyatini tashkiliy tizimini muvofiqlashtirishda ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rnini va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish jarayonlariga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holatning muayyan asosi mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'molning texnik bazasini mustahkamlashga imkoniyat beradi. Davlatlarning ilmiy-texnologik taraqqiyot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan mexanizmlarini shakllantirish jarayoni sanoat siyosati doirasida muayyan tarmoq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar oqimini harakat muvofiqligini borasidagi islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish tizimini bozor talablariga tezkor moslashtirish imkoniyatini beradi.

Jahon iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning fabrikatlar tizimini yaratish imkoniyatini beruvchi sanoat 4.0 modeliga o'tilishi, sanoat ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarga nisbatan talabni keskin oshirishga ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat ishlab chiqarishni sun'iy intellektga integratsiyalash va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda robototexnika, IAT asosidagi mashinalar hamda texnologiyalardan foydalanish ko'lamining ortib borayotganligi ishlab chiqarishda operatsion xarajatlarni qisqartirish va inson omilidan intensiv foydalanishga xizmat qilmoqda. Natija, sanoat ishlab chiqarishda sun'iy intellektga investitsiyalar hajmi ortib borayotganligida o'z aksini topadi. Xususan, 2020-yilda sun'iy intellektga nisbatan investitsiyalar hajmi 1,1 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkich qariyb 15 barobarga ortib, umumiy qiymati 16,7 AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda[17].

Zamonaviy ishlab chiqarishda ilmiy va texnologik salohiyatning ortib borayotganligi global bozorda sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy va boshqaruv jihatlariga ustuvorlik berilayotganligini ko'rsatadi. Bu kabi qator holatlar sanoat tarmoqlarida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmini muvofiqlashtirishning potensial jihatlarini fundamental asosda o'rganishga e'tibor qaratishni talab etadi. Bu boradagi potensial jihatlarining muayyan asosi sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan texnologik startaplarni shakllantirish jarayonida o'z ifodasini topadi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish tizimining amaldagi bosqichi, fan-ta'lim va ishlab chiqarishning samarali natijalarini iqtisodiyotga joriy etishning kengaytirilgan biznes modellarini shakllantirishni taqozo etadi. Mamlakatimizda fan sohasidagi yutuqlarning muayyan asosini ishlab chiqarish jarayoniga tegishli transformatsiyasini ta'minlashda startap loyihalari muhim ahamiyatga ega. Bu kabi qator holatlar startap loyihalarining muhandislik faoliyati orqali namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda startap sanoatining texnoparklar, startap inkubatorlari, startap hamjamiyati, yetakchi mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida texnologiyalar transferi va startap loyihalarini jadallashtirishga yo'naltirilgan tizimi shakllantirilgan. Mazkur institutsional tizimi asosida texnoparklar markaziy ahamiyatga ega bo'lgan ijro mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijro tizimining tashkiliy asosi akseleratsiya va inkubatsiya dasturlari orqali muvofiqlashtirib boriladi. Tashkil etilgan akseleratsiya va inkubatsiya dasturlari startap loyihalarini jalb etish va loyiha tashabbuskorlarini o'qitish jarayonlari uchun xizmat qiladi. Dasturni muvaffaqiyatli yakunlagan loyiha tashabbuskorlari Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etiladigan startap loyihalar tanlovida o'z loyihalari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Akseleratsiya dasturlari startap-loyihalarini biznes faoliyatiga yo'naltirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish orqali innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy asoslarini takomillashtirishga imkon beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish strategiyasini tegishli asosini shakllantirishda startap loyihalarining tashkiliy jarayonlariga alohida ustuvorlik berilgan. Ushbu ustuvorlikni ta'minlashning tegishli modelida texnoparklar faoliyatiga alohida e'tibor berilgan. Texnoparklar faoliyatini tashkil etishda hududlarni innovatsion rivojlantirishning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 31 ta texnoparklar faoliyati tashkil etilgan bo'lib, ularning hududlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan texnoparklarni hududlar bo'yicha taqsimoti[19]


	Hududlar	Faoliyat yo'nalishi tavsifi	Umumiy soni
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Hududiy darajada innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni rivojlantirish	1 ta
2.	Andijon viloyati	Sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan texnologiyalarni shakllantirish	2 ta
3.	Buxoro viloyati	Hududda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash majmuasini tashkil etish	3 ta
4.	Jizzax viloyati	Innovatsion ishlab chiqarishni ilg'or tizimini yo'lga qo'yish	1 ta
5.	Qashqadaryo viloyati	Innovatsion faoliyatni hududiy tizimini shakllantirish	2 ta
6.	Navoiy viloyati	Sanoatning yuqori texnologik tizimini rivojlantirish	2 ta

7.	Namangan viloyati	Yosh ijodkorlarning innovatsion tashabbuslari va loyihalarini qo'llab-quvvatlash	1 ta
8.	Samarqand viloyati	Texnopark tadqiqotlari va startap tashabbuslarini kengaytirish	2 ta
9.	Surxondaryo viloyati	Innovatsion ijodkorlikni rag'batlantirish tizimini shakllantirish	1 ta
10.	Sirdaryo viloyati	Biznesga asoslangan innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash	1 ta
11.	Toshkent viloyati	Sanoat ishlab chiqarishni innovatsion loyihalarga ixtisoslashgan tizimini shakllantirish	3 ta
12.	Farg'ona viloyati	Ishlab chiqarish va innovatsion integratsiyani ta'minlash	2 ta
13.	Xorazm viloyati	Ilmiy va amaliy innovatsiyalarni shakllantirish	6 ta
14.	Toshkent shahri	Yirik innovatsion va IT yo'nalishidagi innovatsion loyihalarni yaratish	4 ta

Startup sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va texnologik asoslarni strategik rejalashtirish, ilmiy-texnik natijadorlikni moliyaviy jihatdan rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishni taqozo etadi. Startup sanoatining tizimlilik ilmiy-texnik jarayonlarning tijoratlashtirish hisobiga ishlab chiqarishning miqdor va sifat jihatlarini takomillashtirish imkoniyatini beradi. O'z o'rnida ushbu holat iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini innovatsion rivojlanish strategiyasini rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan yangi texnologik tizimini shakllanishi hisobiga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning integral modeli takomillashib boradi. Bu kabi qator holatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatorida sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda startap loyihalarning o'zni muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Navoiy, Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan texnoparklar faoliyati asosan sanoat ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida innovatsion loyihalarni shakllantirish va amaliyotga joriy etishga mo'ljallangan. Mazkur hududlarda tashkil etilgan texnoparklarning umumiy soni respublika doirasidagi texnoparklarni qariyb 30 foizini tashkil etadi.

2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan startap loyihalarining faoliyat sohasini tuzilmaviy tarkibini tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, startap loyihalarining jami ulushida texnologik sohada amalga oshirilgan loyihalar yuqori ko'rsatkichga ega. 2020-yilda amalga oshirilgan startap loyihalarning tuzilmaviy tarkibiga asosan, texnologik yo'nalishda amalga oshirilgan startap loyihalar jami loyihalarning 25 foizini, 2021-yilda 28 foizini, 2022-yilda 30 foizini, 2023-yilda 33 foizini, 2024-yilda esa 35 foizini tashkil etgan. Innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etishga doir startap loyihalari 2020-2021-yillarda 18 foiz, 2022-yilda 19 foiz, 2023-2024-yillarda esa 20 foiz ulushga ega bo'lgan (1-rasm).



1-rasm. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan startup loyihalarning faoliyat sohasini tuzilmaviy tarkibi (foizda)[20]

Ijtimoiy sohaga doir startup loyihalari hajmida nisbiy o'sish sur'ati deyarli saqlanib qolgan. 2020-yilda umumiy startup loyihalar tarkibida ijtimoiy sohaga doir startup loyihalari 12 foizni, 2021-yilda 13 foizni, 2022-yilda 14 foizni, 2023-2024-yillarda 15 foizni tashkil etgan.

2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan startup loyihalarning faoliyat sohasini tuzilmaviy tarkibida quyi natijadorlik kreativ industriya sohasida kuzatilingan. 2020-2021-yillarda kreativ industriya sohasida amalga oshirilgan startup loyihalari umumiy starap loyihalarining 10 foizini, 2022-yilda 8 foizini, 2023-2024-yillarda esa, 5 foizini tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoatida istiqbolli startup loyihalarini shakllantirish innovatsion texnologik taraqqiyotni ta'minlashda eng yuqori darajadagi kapital mablag'larini jalb qilish, startup studiyalari orqali milliy sanoat tarmog'ining xalqaro darajada qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini ta'minlashda tegishli vositalar va yangi texnologiyalardan foydalanishni tartibga solish usullarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Bu borada, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik startaplarni shakllantirishni Xitoy tajribasini o'rganish va ustuvor jihatlarini milliy iqtisodiyotda qo'llash tegishli natijadorlikni oshiradi.

Xitoydagi startaplar asosan bir necha yuqori texnologiyali sohalarda jamlangan bo'lib, ular qatorida; yangi turdagi transport vositalari, tibbiyot va sog'liqni saqlash, korporativ xizmatlar dasturiy ta'minoti, elektron tijorat hamda yangi media kabi qator yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi. Tahlilchilar fikriga ko'ra amalga oshirilgan startup loyihalarining faoliyat sohasini tuzilmaviy tarkibida eng katta ulush biotexnologiya, yangi energiya va sun'iy intellekt sohalarida jamlangan. Bozor bahosi bo'yicha eng yirik sektor yangi media bo'lib, umumiy startup loyihalaridan olinadigan daromadning 45 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, yuqori texnologiyali turli sohalar startup loyihalar

ulushida muhim o'rin tutadi. 2024-yil oxirida yuqori texnologiyali sohaga ixtisoslashgan 260 ta kompaniya faoliyati tashkil etilgan. Sun'iy intellekt va yarimo'tkazgichlar kabi ayrim sohalarga investitsiyalar hajmi ortgan.

Xitoy hukumati uchun muhim o'sish sohalari IC sanoatidagi DRAM chiplari, mobil chipsetlar va yarimo'tkazgich ishlab chiqarish tarmog'i hisoblanadi. AQSh venchur kompaniyalari dunyo bo'yicha venchur kapitali bozorini boshqarishda davom etayotgan bo'lsada, Xitoy venchur kompaniyalari bu borada sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Xususan, 2024-yilda CICC Capital venchur kompaniyasi qariyb, 120 dan ortiq investitsion loyilar uchun qiymati 6,965 milliard AQSH dollariga teng mablag' yo'naltirgan. Ikkinchi o'rinda HongShan kompaniyasi o'zining taxminan 56 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan aktivlarini boshqaruvchi yetakchi o'yinchiga aylangan. 2024-yilda HongShan texnologik startaplarga sarmoya kiritish maqsadida umumiy qiymati taxminan 2,507 milliarddan ortiq bo'gan mablag'larni yo'naltirgan[15]. Qolgan venchur kompaniyalarini moliyalashtirishdagi o'rni quyidagi ketma-ketlikni egallagan (2-jadval).

2-jadval

2024-yilda Xitoy Xalq Respublikasining yirik venchur kapital kompaniyalari tomonidan innovatsion loyihalarga sarflar hajmi (mlrd. AQSH dollarida)[18]

VC firmasi	Investitsiyalar soni	Yangi mablag' (taxminan AQSH dollarida)	Asosiy e'tiborga molik sohalari
CICC Capital	120+	≈ 6,965 milliard AQSH dollari	Ilg'or ishlab chiqarish, yarimo'tkazgichlar, sog'liqni saqlash, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, yangi energiya, yangi materiallar
HongShan (Sequoia China)	100+	≈ 2,507 milliard AQSH dollari	Texnologiya, sog'liqni saqlash, iste'molchilar sektori
Yida Capital	80+	≈ 0,627 milliard AQSH dollari	Yarimo'tkazgichlar, yangi materiallar, ilg'or ishlab chiqarish, biotibbiyot, IT
CAS Star	70+	≈ 0,419 milliard AQSH dollari	Optoelektron chiplar, yangi energiya, yangi materiallar, aviatsiya va boshqa texnologik sohalar
Hillhouse Ventures	68	≈ 1,672 milliard AQSH dollari	Aqlli apparatlar (wearable devices), energiya o'tishi (texnologiya va materiallar), hayot fanlari
Shenzhen HTI Group	58	≈ 0,478 milliard AQSH dollari	Avtomatlashtirish va yadro texnologiyasi asosiy komponentlari
Cowin Capital	53	≈ 0,362 milliard AQSH dollari	Yuqori darajadagi ishlab chiqarish, yarimo'tkazgichlar, yangi energiya, sog'liqni saqlash, raqamli iqtisodiyot
Junlian Capital	50+	≈ 2,786 milliard AQSH dollari	Aqlli ishlab chiqarish, texnologiya, iste'molchilar sektori, korporativ xizmatlar, sog'liqni saqlash
Shunwei Capital	40	≈ 0,419 milliard AQSH dollari	Texnologiya, aqlli ishlab chiqarish, aqlli apparatlar, iste'molchilar sektori, korporativ xizmatlar, elektr transport vositalari va boshqalar
Fortune Capital	36	≈ 1,811 milliard AQSH dollari	Ilg'or ishlab chiqarish, sun'iy intellekt

Xitoyda startup loyihalar biznesi faol rivojlanayotgan bo'lib, ularni sanoat tarmog'I doirasidagi o'sish trayektoriyasi kelgusi yillarda ham yuqori ko'rsatkichlarni

shakllantirishi kutilmoqda. Xitoydagi startaplar dunyoning eng katta va eng iste'mol bozorlarida to'g'ridan-to'g'ri foyda olish imkoniyatini shakllantirishga xizmat qilganligi bois, tobora yuqori malakali mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari ortadi. Hukumat uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va sanoatning global raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim bo'lgan strategik faoliyatni subsidiya hamda soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Mamlakatlar o'rtasida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga yo'naltirilgan texnologik startaplarni loyihalashtirish va amalga oshirish borasida Isroil tajribasi alohida ahamiyatga ega. Isroilni jahonning innovatsion texnologiyalar markazi sifatida shakllanishi o'ziga xos bo'lgan tarixiy va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar muhim omil sifatida rol o'ynaydi. Mamlakatda keng tarqalgan innovatsion tadbirkorlik ruhi Isroilning "Startup Millati" sifatidagi nufuzini yaratadigan poydevor sifatida xizmat qiladi.

Isroilning geografik jihatdan murakkab hududda joylashganligi mamlakatning texnologiya va inson kapitalidan faol foydalanishga yo'naltirilgan murakkab vaziyatlarda kreativ yechim topish ko'nikmasini shakllantirish, innovatsion g'oyalarni biznes faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan gineratsiyasini ta'minlashga imkon berdi.

Isroil hukumatining startaplar sanoatini faol qo'llab-quvvatlashda Milliy tadqiqot va rivojlanish Kengashi muhim o'rin egallaydi. Mazkur Kengash yetakchi olimlar, tadqiqotchilar hamda turli sohada faoliyat olib boradigan nufuzli mutaxassislardan iborat bo'lib, hukumatga ilmiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar berib boradi. Shuningdek, Isroilda Bosh olim idorasi tashkil etilgan bo'lib, ushbu tashkilot bosh vazirga ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha maslahatchi hisoblanadi. Bosh olim idorasi xalqaro va davlat grantlarini ajratish jarayoniga umumiy rahbarlik qiladi.

Startup inkubatorlari iqtisodiyot tarmoqlariga moliyaviy jihatdan ko'mak va strategik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi. Bu mamlakat hukumatining yetarli iqtisodiy resursga ega bo'lmagan sharoitida eksportga yo'naltirilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Hozirda **startup inkubatorlarining** eksporti yiliga **20 milliard AQSh dollariga** yetgan bo'lib, uning qariyb **10 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan qismini texnologik mahsulotlar** tashkil etadi[16].

Isroil YaIMga nisbatan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga sarflanadigan mablag'lar miqdori bo'yicha barcha davlatlardan yuqori o'rinda turadi. Mamlakat 2024-yilda YaIMining 3,93 foizini ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirgan. Bu ko'rsatkich bugungi kunda sanoat sohasi texnologik jihatdan taraqqiy topayotgan Xitoy va Hindistondan ancha yuqori hisoblanadi.

Isroil malakali olimlar va tadbirkorlar soni bo'yicha aholi jon boshiga hisoblaganda, dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Isroil universitetlari bitiruvchilarining 31 foizi yuqori texnologiyali (hi-tech) sohasida bilim va tajribaga ega ekanligi sanoat tarmog'ida texnologiyalar almashinuv tizimini tashkil etishning mustahkam asosi hisoblanadi.

XULOSA

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan milliy va xalqaro tajribalari o'rtasidagi farqli xususiyatlar mamlakatimizda texnologik startaplarni shakllantirish va uni muvofiqlashtirish jarayonida texnologiyalar transformatsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimning shakllanmaganligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, bu borada tegishli samaradorlikni ta'minlashda quyidagi vazifalar ijrosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- sanoat tarmoqlari doirasida startap loyihalarini shakllantirishning kontraks modelini amaliyotga joriy etish orqali sanoat ishlab chiqarishning hududiy darajadagi texnologik mustaqilligini ta'minlash hisobiga transaksion xarajatlarni qisqartirish;
- hududiy darajada sanoat ishlab chiqarishning akselerator dasturlari orqali istiqbolli startap loyihalarini qo'llab-quvvatlashning biznes modelini shakllantirish;
- startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining soni, startap mahsulotlariga talabni ta'minlaydigan o'sib borayotgan ichki bozor ehtiyojlari asosida moliyalashtirish manbaalarini optimal variantlarini shakllantirish;
- texnologik startaplarni sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligiga yo'naltirilgan mexanizmini aniq natijadorligiga asosan jahon bozorida raqobatdoshlik hosil qiladigan milliy mahsulotlar brendini shakllantirish;
- xorijiy investorlar hamda startap ekotizimi ishtirokchilari o'rtasida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning taktik va strategik rivojlanish ssenariylari orqali jahon bozorida milliy ishlab chiqarishning global texnologik raqobatbardoshligini oshirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-sonli Qarori.
2. Audretsch, D.B. and Thurik, A.R. (2001) What's New about the New Economy? Sources of Growth in the Managed and Entrepreneurial Economies. *Industrial and Corporate Change*, 10, 267-315.
3. John-Christopher Spender, Vincenzo Corvello, Michele Grimaldi, Pierluigi Rippa, (2017) "Startups and open innovation: a review of the literature", *European Journal of Innovation Management*, Vol. 20 Issue: 1, pp.4-30, <https://doi.org/10.1108/EJIM-12-2015-0131>
4. Gans, J.S., Stern, S., & Wu, J. (2019). Foundations of Entrepreneurial Strategy. *Environment for Innovation eJournal*.
5. Formichini, M., Cimini, G., Pugliese, E., & Gabrielli, A. (2019). Influence of Technological Innovations on Industrial Production: A Motif Analysis on the Multilayer Network †. *Entropy*, 21.
6. Елина Н.С, Ковалева М.В, Силакова Л.В, Широкова В.В. Исследование управленческих особенностей технологического стартапа // Российское

- предпринимательство. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-upravlencheskih-osobennostey-tehnologicheskogo-startapa>.
7. Токарев Б. Е. Маркетинг инновационно-технологических стартапов: от технологии до коммерческого результата. Монография.-Москва: Магистр, ИНФРА-М, 2018. 262 с.
8. Кожанова, А.В. Механизм финансирования российских стартапов на разных стадиях их жизненного цикла: автореферат дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.10 / Кожанова Анастасия Вячеславовна; [Место защиты: Государственный университет управления]. — Москва, 2021. — 27 с.
9. Шаймиева Э.Ш, Гумерова Г.И. Стартапы креативных индустрий: характеристики стартапов, направление программ развития // КЭ. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/startapy-kreativnyh-industriy-harakteristiki-startapov-napravlenie-programm-razvitiya>.
10. Астапов К.Л., Жданов Д.И. Стратегические инициативы развития стартапов в сфере информационных технологий России. Экономика промышленности. 2022;15(1):78-92. <https://doi.org/10.17073/2072-1633-2022-1-78-92>
11. Иншаков М.О. Инновационные стартап-проекты: опыт, оценка, противоречия реализации // Вестник ВолГУ. Экономика. 2015. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-startap-proekty-opyt-otsenka-protivorechiya-realizatsii>.
12. Ашурова, Н., & Атамурадов, Ш. (2024). Стратегии привлечения венчурного капитала для технологических стартапов. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 318–325. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/59824>
13. Xolboʻtayev M.T. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda startap ekotizimining oʻrni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №3. – B. 45–49.
14. Jabborov I.M. Startap loyihalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari // Moliyaviy taʼlim jurnali. – 2023. – №1. – B. 33–37.
15. https://insights.made-in-china.com/China-s-Startup-Landscape-Industries-Investment-and-Incentive-Policies-2025_LaztNmVJVnDy.html
16. <https://medium.com/@200apps/the-story-of-the-startup-how-israel-became-the-startupnation-e6c5e64656cc>
17. <https://www.researchnester.com/reports/industrial-machinery-market/6825>
18. <https://www.chinabridgeglobal.com/>
19. www.stat.uz- Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasining rasmiy axborot sayti maʼlumotlari <https://it-park.uz/uz/itpark/news/digital-startups>